

"FAYNBERG IJODIGA YANGI NAZAR"

Yuldosheva Elmira Akmal qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

xorijiy til va adabiyoti 3- fakulteti talabasi

Tel: 97.670.35.99

E-mail: elmirayoldosheva4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada she'rlardagi falsafiy mushohadalar, ruhiy kechinmalar badiiy tasvir vositalari va shoirning ichki iztiroblari qanchalik go'zal hamda teran aks etganini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: obrazlilik, nazm, nasr, qiyoslash, to'rtlik, badiiy bo'yoqdorlik, kulminatsiya, adabiy tushuncha, ijod ko'lami, badiiy adabiyot, tashbeh, epitet, tasviriylilik.

Adabiyot inson ruhining eng nozik pardalarini chertib, yurakdagi sezgilarga jilo beradigan ilohiy san'atdir. U inson tafakkurining mahsuli, tuyg'ularning ifodasi, kechinmalarning so'z vositasida jilo topgan shaklidir. Adabiyot — bu hayotning o'ziga xos aksidir, unda insoniyatning armonlari, quvonchlari, dardlari va umidlari mujassam. U nafaqat inson qalbining teran qatlamlariga yetib boradigan kuch, balki jamiyatning tarixi, madaniyati va axloqiy qiyofasini aks ettiruvchi ko'zgudir.

She'riyat esa adabiyotning eng nozik va his-tuyg'ularga boy janrlaridan biri bo'lib, shoir o'zining ichki dunyosini, yurak nidosini, qalb haroratini har bir misrada, har bir ohangda ifodalab, o'quvchi qalbiga yetkazadi. She'riyat tafakkurning eng baland cho'qqilariga ko'tarilish, inson ichki olamining eng nozik va murakkab jihatlarini ochib berish vositasidir. Har bir she'rda shoirning ruhiy kechinmalari, shaxsiy dardu iztiroblari, tabiat va borliq bilan munosabati o'z aksini topadi. She'rlar orqali inson o'zini angelaydi, o'tmish va kelajak o'rtasidagi bog'liqlikni his qiladi, hayotning abadiyligi va o'tkinchiligi haqida mushohada yuritadi.

Adabiyot shunchaki so'zlar yig'indisi emas, u ong va qalb mahsuli bo'lib, kishining ichki dunyosini shakllantiradi, hislarini tarbiyalaydi, uni hayot haqiqatlariga ko'nikishga o'rgatadi. She'riyat esa inson ruhiyati va kechinmalarining eng nozik va betakror jilvalarini ochib beruvchi badiiy haqiqatdir. Aynan shu sababli har bir she'r o'zining ichki mohiyati, badiiy obrazlari, hissiyotlarning mujassamlanishi bilan inson yuragiga ta'sir qiladi.

Axir, menga kimlar ishongandi- ya,
Pinhon umid qilib yurakka malham?!
Maysalar, hayvonlar ishongandilar...
Menga ishongandi onajonginam.

Erkinlik deb barin boy berib qo'ydim
Onam qabri uzra yuzlarim shuvut
O't qo'ydim, maysalar qovjirab kuydi,
O't qo'ydim, hayvonlar bo'lishdi nobud.

She'ning dastlabki bandi mazmun jihatidan falsafiy va ruhiy iztirobga yo'g'rilgan. Shoir o'ziga kim ishonishini, umid va ishonch tuyg'ularini qaysi manbalardan topishini so'roq qilishi bilan she'rni boshlaydi. " Maysalar, hayvonlar ishongandilar..." degan misralar esa tabiat bilan inson orasidagi bog'liqlikni yana bir bor ko'rsatadi. Bu yerda shoir o'zining yolg'izligi, jamiyat ichida o'zini begona his qilishi alohida seziladi.

Onaning obrazi esa she'ning eng asosiy badiiy unsurlaridan biridir, shuning uchun ham alohida o'rin egallaydi. " Menga ishongandi onajonginam" satri inson qalbidagi eng yaqin va aziz kishisining ishonchi qanday muhimligini bildiradi. Bu ,o'z navbatida , individualizm va inson motivlarining kuchayishini ta'kidlaydi. Keyingi misralarda ona vafot etganidan keyingi bo'shliq, dunyoning sovuq va begona ko'rinishi yanada yaqqol seziladi. " Onam qabri uzra yuzlarim shuvut" satri o'quvchida og'ir bir qayg'u hissini uyg'otadi.

Qushdek erkin bo'ldim, mana, nihoyat
Kishandamasman- ku bamisoli qul?
Bolaligimdagi so'lim tabiati
Nega tushlarimga kirmaydi nuqul?

Ikkinchi bandni " ozodlik va qismat paradoksi" deb nomlasak ham bo'ladi. Qolaversa, she'ning eng ta'sirli qismlaridan biri bu- erkinlik haqidagi satrlar. " Qushdek erkin bo'ldim, mana, nihoyat" degan jumla dastlab insonning ozod bo'lishiga ishora qilayotgandek tuyuladi. Ammo keyingi misralar orqali shoir ozodlikning ham qaramlik ekanligini ko'rsatadi. " Kishandamasman- ku bamisoli qul?" satri orqali inson erkin bo'lsa- da, baribir nimagadur bog'liq ekanligini , qismatning taqdiridan qochib bo'lmasligini anglatadi.

Bu yerda she'riy san'atlardan - antiteza(qarama- qarshilik) san'ati ustalik bilan qo'llangan. Inson qush kabi erkin bo'lishni istaydi, lekin erkinlik ham uning ichida bo'shliq, yolg'izlik va mung paydo qiladi. Shoir bolaligini tabiiy va beg'ubor holatini sog'inadi. " Bolaligimdagi so'lim tabiat, Nega tushlarimga kirmaydi nuqul?" misrasi hayotning shafqatsiz o'tishini , bolalik beg'uborligini yo'qotish motivini ochib beradi.

Qancha mamlakatlar tushdi kulfatga,
Ummonlarim qani? Qani dengizim?
Boqdim osmondagi noxush kalxatga,

Asli shu kalxatni uchirgan o'zim.

She'ning keyingi qismida insoniyat boshiga tushayotgan qiyinchiliklar haqida falsafiy mushohadalar mavjud. " Qancha mamlakatlar tushdi kulfatga" misrasi orqali tarixiy voqealar, insoniyatning tinimsiz kurashi, jabr- zulm va nohaqliklar haqida o'y suriladi. Shoir kechinmalari individualistik ruhiy iztirobdan jamiyat va insoniyat muammolariga kengayib boradi.

Shoir o'zini yo'qotgan, dunyo oldida ojiz bo'lgan inson sifatida tasvirlaydi. " Oyog'im ostida yerlar sho'r, taqir" satri esa uning hayot yo'lidagi safarini, ma'no izlashini, shaxsiy fojiasini ochib beradi.

Oyog'im ostida yerlar sho'r, taqir,
Ketyapman yelkamda safar xaltam shay.
Uyatdan yuragim o'rtanar axir,
Issiqda tashnalik qiynar ayamay.

Ushbu to'rtlikda shoirning ichki kechinmalari, hayotiy iztiroblari va ruhiy holati juda teran badiiy vositalar bilan ifodalangan. She'rda " yerlar sho'r, taqir" degan tasvir bilan quruq, hayotsiz, umidsiz makon ifodalangan. Sho'r va taqir yer metafora sifatida inson hayotining murakkabliklari, mashaqqatligi va umidsizligini anglatadi. Bu tasvir shoirning ruhiy holatini, uning ichki iztiroblarini yanada teranroq ochib beradi.

She'rdagi eng ta'sirli qism- " Uyatdan yuragim o'rtanar, axir," misrasidir. Bu yerda shoir o'zining ichki alamini, nadomatini, vijdon azobini ifoda qilgan. U hayotiy qiyinchilik qarshisida o'zini ojiz his qiladi va bu unga chuqur ta'sir ko'rsatadi. She'ning ritmik tuzilishi ham uning ta'sir kuchini oshirgan. Har bir misra oxiridagi ohang inson yuragidagi to'lqinlarini aks ettirgandek tuyuladi. Shoir sodda, ammo nihoyatda ta'sirli so'zlarni tanlagan, bu esa she'rni yanada jonli hamda jozibali qilishga ko'maklashgan.

Buloqqa tiz cho'kib, egilib pastga,
Chol kabi suv icha boshlayman uzoq.
Suvdagi aksimga qo'shilib asta,
Yer qa'riga singib ketadi buloq.

She'ning oxirgi parchasi ham Buloqqa tiz cho'kib suv ichayotgan inson obrazini aks ettirgan. Buloq- tabiatning go'zal in'omi, hayot manbai. Shoir Buloqqa egilib, undan suv ichadi va shu jarayonda o'zining ichki dunyosiga sayohat qiladi. " Chol kabi suv icha boshlayman uzoq" misrasi esa hayot falsafasini, tajribani, hayot yo'lida to'plangan bilim va anglash jarayonlarini eslatadi. Chol timsoli donolik va sokinlik ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi to'rtlikda mahorat bilan foydalanilgan eng kuchli san'atlardan biri bu- tasviriylilik. Suvda aks etayotgan obraz va uning buloq bilan birlashib, yer qa'riga singib ketishi inson umrining o'tkinchiligi, borliq bilan qo'shilib ketish motivini yodga soladi. Inson va tabiat bir butunligini, uning bir-biriga ta'sirini shoir juda nafis hamda ta'sirchan uslubda tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Researchgate.net
2. O. Muxtor. Adabiyot va tafakkur. Toshkent. Ma'naviyat nashriyoti, 2012.
3. Ziyo.uz
4. Cyberleninka. rus
5. Aleksandr Faynberg. Qoralamaga qasida